



O'ZBEK VA YAPON TILLARIDAGI KELISHIK TIZIMI: QIYOSIY TAHLIL

Ilhomova Nozima

*O'zDJTU Sharq filologiya fakulteti
FYAP 2410-guruhan talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va yapon tillaridagi kelishik tizimi qiyosiy tahlil qilinadi. O'zbek tilida kelishik maxsus qo'shimchalar orqali ifodalanadi, yapon tilida esa bu vazifani 格助詞 (kaku joshi) deb ataluvchi partikllar bajaradi. Tadqiqot davomida ushbu ikki til tizimidagi grammatik farqlar va o'xshashliklar o'r ganiladi. Shuningdek, kelishik kategoriyasining sintaktik va semantik jihatlari ham ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari yapon va o'zbek tillarining grammatik tuzilishini tushunishda hamda tarjima jarayonlarida foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, yapon tili, kelishik, partikllar, grammatik tuzilma, tarjima, tilshunoslik.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the case system in Uzbek and Japanese. In Uzbek, case relations are expressed through special suffixes, whereas in Japanese, this function is performed by 格助詞 (kaku joshi) particles. The study examines the grammatical similarities and differences between these two linguistic systems. Additionally, the syntactic and semantic aspects of case markers are analyzed. The findings of this study may contribute to a better understanding of the grammatical structures of Uzbek and Japanese and be useful in translation studies.

Key words: Uzbek language, japanese language, case system, particles, grammatical structure, translation, linguistics.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ падежной системы в узбекском и японском языках. В узбекском языке падеж выражается с помощью специальных аффиксов, тогда как в



японском языке эту функцию выполняют частицы 格助詞 (каку жоши). В исследовании рассматриваются грамматические сходства и различия между этими двумя языковыми системами. Кроме того, анализируются синтаксические и семантические аспекты падежных показателей. Результаты данного исследования могут способствовать более глубокому пониманию грамматической структуры узбекского и японского языков, а также быть полезными в области переводоведения.

Ключевые слова: Узбекский язык, японский язык, падеж, частицы, грамматическая структура, перевод, лингвистика.

Har bir tilning grammatik tuzilishi o‘ziga xos bo’lib, u tilshunoslik nuqtai nazaridan qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanadi. O‘zbek va yapon tillari kelib chiqishi jihatidan farqli bo‘lsa-da, ikkalasi ham agglutinativ tillar qatoriga kiradi. Bu esa ularning grammatik tizimida muayyan o‘xshashliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada o‘zbek va yapon tillaridagi kelishik tizimi tahlil qilinib, ularning grammatik o‘xhash va farqli jihatlari aniqlanadi.

O‘zbek tilida otlar gapda turli sintaktik vazifalarni bajarishi uchun kelishik qo‘sishchalari ishlatiladi. Ular otning boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishini va gapdagini ma’nosini aniq belgilab beradi. O‘zbek tilida 6ta kelishik mavjud:

1. Bosh kelishik-otning qo‘sishchasiz shakli (kitob, bola, mifik).
2. Qaratqich kelishigi(-ning)- egalik yoki qarashlilikni bildiradi (kitobning muqovasi, bolaning do‘sti).
3. Tushum kelishigi(-ni)- to‘g‘ri to‘ldiruvchini bildiradi (kitobni o‘qimoq, do‘stini chaqirmoq).
4. Jo‘nalish kelishigi(-ga,-ka,-qa)- yo‘nalish, maqsadni bildiradi (mifik borish, eshikka urilish, buyruqqa bo‘ysunish).
5. O‘rin-payt kelishigi(-da)- joy yoki vaqtini bildiradi (uyda o‘tirish, bahorda kelish).



6. Chiqish kelishigi(-dan)- chiqish, sabab yoki kelib chiqishni bildiradi (maktabdan kelish, kasallikdan tuzalish) [1-2].

Yapon tili sintaktik jihatdan agglutinativ til bo‘lib, unda so‘zlar va iboralar orasidagi grammatik munosabatlarni yordamchi so‘zlar- joshilar(助詞) yordamida belgilanadi. Joshilar ichida eng muhim guruhlardan biri- kaku joshilar(格助詞) bo‘lib, ular o‘zbek tilidagi kelishik qo‘shimchalari kabi ot yoki ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarni gap tarkibidagi boshqa so‘zlar bilan bog‘lash vazifasini bajaradi [3]. Kaku joshilar gapdagi so‘zlarning sintaktik rolini aniqlab, ularni fe’l yoki boshqa so‘zlar bilan bog‘lab kelishik ma’nolarini hosil qiladi [4-5]. O‘zbek tilida bu vazifa asosan so‘z oxiriga qo‘shiladigan morfemalar orqali bajarilsa, yapon tilida kaku joshilar alohida so‘z sifatida keladi va otlardan keyin ishlataladi.

Yapon tilida bir nechta asosiy kaku joshilar mavjud bo‘lib, ular gapning turli qismlariga bog‘liq holda kelishik ma’nolarini bildiradi.

Kaku joshi	O‘zbek tilidagi ekvivalenti	Vazifikasi	Misol
が (ga)	Kim? Nima? (Nominativ kelishik)	Gapning egasini bildiradi.	彼が来ました。(Kare ga kimashita.) – U keldi.
を (o)	Kimni? Nimani? (Tushum kelishigi)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadni bildirad	本を読みます。(Hon o yomimasu.) – Kitob o‘qiymen.
に (ni)	Kimga? Nimaga? Qayerda?	Yo‘nalish, qabul qiluvchi	学校に行きます。(Gakkō ni



	(Jo‘nalish / O‘rin kelishigi)	yoki vaqtini bildiradi.	ikimasu.) – Matabga boraman.
へ (e)	Qayerga? (Jo‘nalish kelishigi)	Harakat yo‘nalishini bildiradi.	日本へ行き ます。(Nihon e ikimasu.) – Yaponiyaga boraman.
で (de)	Qayerda? Nima bilan? (O‘rin / Vosita kelishigi)	Harakatning sodir bo‘lish joyi yoki vositasini bildiradi.	図書館で勉 強します。 (Toshokan de benkyō shimasu.) – Kutubxonada o‘qiymen.
から (kara)	Qayerdan? (Chiqish kelishigi)	Harakatning boshlanish nuqtasini bildiradi.	日本から来 ました。 (Nihon kara kimashita.) – Yaponiyadan keldim.
まで (made)	Qayergacha?	Harakatning chegarasini bildiradi.	東京まで行 きます。 (Tōkyō made ikimasu.) – Tokyogacha boraman.



Bu qo'shimchalar yapon tilining sintaktik tizimida markaziy o'rin tutadi va gap tuzilishining aniq ifodalanishini ta'minlaydi. S. Kuno ning "The Structure of the Japanese Language" [5] asari yapon tilining grammatik va sintaktik tuzilishini ilmiy asosda tahlil qiluvchi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Susumu Kuno o'z tadqiqotida yapon tilining o'ziga xos sintaktik xususiyatlarini, jumladan, kelishik joshilar (格助詞, kaku joshilar) ning gap tuzilishidagi rolini chuqur o'rganadi. Bundan tashqari, S. E. Martinning "A Reference Grammar of Japanese" manbaasi yapon tili morfologiyasi, sintaksisi va semantikasi bo'yicha keng qamrovli izlanish natijalarini o'z ichiga olgan bo'lib, ayniqsa, kaku joshilar (格助詞) ning funksional jihatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Martin o'z tadqiqotida yapon tilidagi kelishik joshilarining harakat fe'llari bilan o'zaro aloqasini, ularning gap tarkibidagi sintaktik rolini va ma'no nuqtayi nazaridan yuzaga keladigan o'zgarishlarni bat afsil yoritadi. U yapon tilidagi egalik, harakat yo'nalishi, vositalik va boshqa kelishik ma'nolari ning qanday ifodalanishini izohlash bilan birga, turli misollar orqali ularning real nutqda qanday qo'llanilishini ham tahlil qiladi.

Har ikkala tilda kelishik qo'shimchalari gapdagi so'zlar orasidagi grammatik bog'lanishni belgilaydi. Ularning umumiyligi xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. So'z va gap tarkibidagi bog'lovchilik vazifasi

*O'zbek tilida: kitobni o'qidim(kitob- ot, -ni- tushum kelishigi, o'qidim-fe'l)

*Yapon tilida: 本を読みました。 (本 – kitob, を – tushum kelishigi, 読みました – o'qidim). Ikkala til ham ega va to'ldiruvchi orasidagi munosabatni maxsus qo'shimchalar orqali ifodalaydi.

2. Kim yoki nima haqida gap ketayotganini bildirishi

*O'zbek tilida: Men uyg'a ketyapman. (-ga jo'nalish kelishigi)

*Yapon tilida: 私は家へ行きます。 (へ – jo'nalish kelishigi). Bu kelishiklar harakatning yo'nalishini yoki manzilini ko'rsatish uchun ishlataladi.



3. Vosita va o‘rin-payt kelishiklarining ishlatilishi

*O‘zbek tilida: Qalam bilan yozdim. (-bilan vosita kelishigi)

*Yapon tilida: ペンで書きました。 (で – vosita kelishigi). Bu jihatdan ikki til orasida grammatik jihatdan o‘xshashlik bor, chunki ikkisi ham vosita yoki usulni bildirish uchun maxsus qo‘sishchalar (yoki partikllar) ishlatadi.

O‘zbek va yapon tillari o‘rtasida ba’zi asosiy farqlar mavjud:

1. O‘zbek tilida kelishik qo‘sishchalari so‘zga qo‘shiladi, yapon tilida esa alohida partikllar ishlatiladi

*O‘zbek tilida: kitobdan foydalandim. (kitob + -dan chiqish kelishigi)

*Yapon tilida: 本から学びました。 (本 – kitob, から – chiqish kelishigi, 学びました – o‘rganmoq). Yapon tilida kelishik vazifasini bajaruvchi birliklar (助詞 – joshi) so‘zdan alohida yoziladi.

O‘zbek tilida 6 ta kelishik bor, yapon tilida esa turli grammatik vazifalarga ega ko‘plab partikllar mavjud:

*O‘zbek tilida: qaratqich (-ning), tushum (-ni), jo‘nalish (-ga), chiqish (-dan), o‘rin-payt (-da), vosita (-bilan)

*Yapon tilida: が (ega), を (tushum), に / へ (jo‘nalish), で (vosita/o‘rin), から (chiqish), と (bilan, birgalik)...[7]

Yapon tilidagi partikllar son jihatdan ko‘proq bo‘lib, ularning ba’zilari o‘zbek tilida aniq mos keladigan shaklga ega emas.

3. Ba’zi yapon partikllarining o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mosligi yo‘q. Masalan, は (wa) mavzuni bildiradi, lekin o‘zbek tilida bunday aniq qo‘sishcha yo‘q.

*O‘zbek tilida: Bugun havo yaxshi.

*Yapon tilida: 今日は天気がいいです。 (今日は – "bugun" mavzusi, が – ega kelishigi, いいです – yaxshi). Yapon tilidagi は mavzuni aniqlash uchun ishlatiladi, lekin o‘zbek tilida bu funksiyani maxsus kelishik bilan ifodalash shart emas.



Qiyosiy jadval:

Kelishik	O‘zbek tilida	Yapon tilida
Qaratqich	Mening kitobim	私の本 (わた しのほん)
Tushum	Kitobni o‘qidim	本を読みま した。 (ほん をよみまし た)
Jo‘nalish	Uyga bordim	家へ行きました。 (いえ へいきまし た)
Chiqish	Maktabdan keldim	学校から来 ました。 (が っこうから きました)
O‘rin-payt	Maktabda o‘qiymen	学校で勉強 します。 (が っこうでべ んきょうし ます)
Vosita	Qalam bilan yozdim	ペンで書き ました。 (ペ んでかきま した)



O‘zbek va yapon tillari kelib chiqishi jihatidan farqli bo‘lsa-da, ularning kelishik tizimlari ma’lum darajada o‘xshashliklarga ega. Har ikkala til ham grammatik bog‘lanishni ta’minlash uchun kelishik qo‘srimchalaridan yoki partikllardan foydalanadi. Biroq, yapon tilida bu birliklar mustaqil yozilsa, o‘zbek tilida so‘zning o‘ziga qo‘shiladi. Bundan tashqari, yapon tilida ba’zi partikllar mavzuni ifodalash yoki nozik grammatik farqlarni aniqlash uchun ishlataladi, bu esa o‘zbek tilida maxsus kelishik bilan ifodalanmaydi. Kelishiklarning qiyosiy tahlili o‘zbek va yapon tillari orasidagi grammatik farqlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va til o‘rganishda samarali yondashuvni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Madvaliyev, A., & Matchonov, M. (2006). O‘zbek tili grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Mahmudov, N., & Jo‘rayev, G. (2019). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Shibatani, M. (1990). The Languages of Japan. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Tsujimura, N. (2014). An Introduction to Japanese Linguistics. Oxford: Wiley-Blackwell.
5. Kuno, S. (1973). The Structure of the Japanese Language. Cambridge, MA: The MIT Press.
6. Martin, S. E. (1975). A Reference Grammar of Japanese. New Haven, CT: Yale University Press.
7. Kim, T. Tae Kim’s Guide to Learning Japanese. [Online resource]